

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, badiiy makonning syujet va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlovchi omil ekanligini e'tirof etgan holda, norealistik hikoyada o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish yo'sinlarini ham diqqat bilan o'rganish muhim. Chunki hikoyada zamon va makon masalasi M.Baxtin ta'kidlaganidek, "uchrashuv motivi turli xil yo'l uchrashuvlari – yo'l xronotopi ("katta yo'l") bilan muhim bog'lanishga ega. Yo'l xronotopida makon-zamon uyg'unligi mukammal tarzda aniq va yorqin tarzda ochiladi". Adabiyotda yo'l xronotopining alohida o'rnini bor. Yo'l motiviga doir variatsiyalarga ega bo'lmagan asarlar

kamdan-kam uchraydi, aksincha, yo'l xronotopi, yo'ldagi uchrashuvlar, yo'l sarguzashtlari asosiga qurilgan asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi [1:60]. Zotan, yo'l xronotopidagi o'sish-o'zgarishlar, kutilmaganda qahramonning turli sinovlarga duch kelishi, iztirob chekishi, visol sari odimlashi, chigalliklarni yengib o'tishi ayni shu masalalarga qulay yechim topishida qo'l keladi. Natijada, yozuvchi o'z ijodiy g'oyasini, maqsadini, konsepsiyasini to'laqonli talqin qilishga erishishi mumkin, degan tasavvur paydo bo'lishi tayin.

Adabiyotlar

1. Бактин М. Романда зомон ва макон шакллари. –Т.: «Академнашр», 2014. 60-6.
2. Назар Эшонкул. "Мен"дан менгача. –Т.: «Академнашр», 2014. 89-6.
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdami/ulugbek-hamdami-bir-piyola-suv-hikoya/>

REZYUME. Ushbu maqolada badiiy xronotopning kompozitsion yaxlitligi, matnning qay tariqa yuzaga chiqishi, yozuvchi konsepsiyasining o'ziga xosligi, mifologik talqin birikuvining zamonaviyligi idrok va tasavvur yig'indisi singari ko'plab komponentlar shartlanganlik hosilasi bilan izohlanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается композиционная целостность художественного хронотопа, особенности возникновения текста, своеобразие писательской концепции, а также современность мифологической интерпретации как результата соединения многих компонентов, таких как восприятие и воображение.

SUMMARY. This article explains the compositional integrity of the artistic chronotope, the way the text emerges, the uniqueness of the writer's concept, and the modernity of the mythological interpretation as a result of the combination of many components, such as perception and imagination.

DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

D.B.Annakulova – *stajyor o'qituvchi*

Guliston davlat universiteti

Tayanch so'zlar: doston, terma, baxshi, ijrolik, kasbiy, tayyorgarlik, urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim, musiqa, aytim, pedagogika.

Ключевые слова: эпос, терма, бахши, исполнение, профессионал, подготовка, обычай, традиция, ценность, обряд, музыка, стих, педагогика.

Key words: epic, terma, bakhshi, performance, professional, preparation, custom, tradition, value, ceremony, music, verse, pedagogy.

Kirish. O'zbek xalqining an'anadagi og'zaki poetik ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri bu shubhasiz doston ijrochiligi ijodiyoti hisoblanadi. An'anaviy ravishda doston ijrochiligi tabiati va xususiyatlariga oid savollar san'atshunoslik, folklorshunoslik, etnografiya, pedagogika, musiqa pedagogikasi fanlari doirasida o'rganiladi. Biroq, ushbu tadqiqotda ularning ta'kidlari o'zining maxsus xususiyatlari sababli, musiqa pedagogikasi ta'limida doston ijrochiligini o'rganish uchun pedagogik shart-sharoitlarni, pedagogik zaruriyatni, mexanizmlarni, kasbiy metodik asoslarni aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism. Pedagogika sohasida doston ijrochiligi an'analari o'rganish bo'yicha dastlabki urinishlar qadim zamonlarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq, bugungi kunga kelib, uning ta'sir kuchi yanada ijtimoiy hayotda saqlanib qolmoqda. Shunday bo'lsada, nazarimizda, ushbu sohada hal qilinmagan ko'plab, masalalar o'z yechimini kutib turmoqda. Shu bilan birga, talabalarning doston ijrochiligi ijrochiligini o'zlashtirishlari, ularning muhim xususiyatlarini tushuntirish, anglash, o'zlashtirish asosida amalga oshirilib boriladi. Musiqa pedagogikasi ta'limi tizimida musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabasini bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida ham kasbiy ham amaliy ham metodik jihatdan tayyorlaydi. MDH olimlaridan N.P.Labzenko, - "doston ijrochiligi har bir o'qituvchi uchun o'z sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlarga qaratilishi lozim bo'lgan zaruriy ehtiyojdir" deydi [2]. Musiqa pedagogikasida talabalar tomonidan doston

ijrochiligi ijrochiligini o'zlashtirish so'nggi ilmiy ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi zaruriyati, doston ijrochiligining nima ekanligi, uning xususiyatlari va u xalq ijodida qanday o'rin egallashi haqidagi savollarni aniqlash zaruratini tug'diradi. Shuning uchun ushbu xususiyatlarni tasvirlash, musiqa pedagogikasi ta'limi uchun doston ijrochiligini o'zlashtirish modelini ishlab chiqishdan oldin tizimlashtiriladi.

Har bir millat o'zining qadimgi eposi hisoblangan dostonlariga e'tibor qaratishlari va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy va metodik tayyorlashda albatta ushbu ijrochilikdan foydalanishlari lozim. Doston ijrochiligi mavzusini bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlash ta'lim mazmuni sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, avvalo doston tushunchasini aniqlashtirish, uning mazmun va mohiyatini tushunish, va qolaversa, mavzu nuqtayi nazardan olganda uning ta'rifini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o'rinda MDH olimlarining doston atamasi haqidagi muhlohzalariga diqqatimizni qaratamiz. Jumladan, E.M.Meletinskiy doston ijrochiligini "o'tgan zamon haqida qahramonlik hikoyasi, xalq hayotining butun tasvirini o'z ichiga olgan va botirlarning qahramonlik hikoyasi – doston tushunchasini umumnazariy dunyosini harakatga keltiradi" deb ta'riflaydi [1]. Olimning ushbu ta'rif mazmuniga ko'ra, doston tushunchasi avvalo Gomerning buyuk poema va boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan qahramonlik hikoyalari bilan bog'lanadi.

O'zbek xalqining qadim-qadimgi davrlarga quloq tutsak o'zbek xalqining eposi sifatida qaraladigan "Alpomish" mamlakatning janubiy o'lkalarida jonli doston an'analar manbasi sifatida asosan qahramonlik dostonlari edi. Aristoteldan kelayotgan doston ijrochiligini qahramonlik she'riyati sifatida tushunish, bir qator o'zbek va xorijiy folklor-filologlar uchun an'anaviy hisoblanadi [4].

Dostonga berilgan ta'riflardan biri Gegel tomonidan berilgan. Gegel, she'riyatga bag'ishlangan "estetika" bo'limida shunday yozadi: "Doston, ya'ni so'z, umumiy holda, ishning mohiyatini bayon qiladi, so'zga aylangan holda va o'z ichida mustaqil mazmun talab qiladi, bu mazmun nimani anglatishini va qanday ekanligini ifodalaydi" [3].

Tadqiqot mavzusi yuzasidan chet el olimlaridan nemis faylasufi G.F.Gegel tadqiqotlarida doston ijrochiligining mohiyatini eng aniq ifodalagan. Uning ta'rifiga ko'ra, doston ijrochiligida "qahramonlik" so'zini ko'p qo'llanilishi bejiz emas. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda aytish joizki, darhaqiqat aslida qahramonlarga bag'ishlab dostonlar to'qilgan. Shuning uchun ham agar doston to'g'risidagi fikrlari asosan qahramonlik dostonlariga, jumladan, asosan Gomerning buyuk poeziyalariga bag'ishlangan. Donishmandlar, faylasuflar, og'zaki ijod uchun doston, avvalo, hikoya qilishdir.

Folklor tadqiqotlarida san'at asarining mazmuni, funksiyalari va ijro xususiyatlari bir xil ahamiyatga ega bo'lib, bu janrli bo'lishning muhim mezonini hisoblanadi, ammo o'zbek xalq musiqa madaniyatining sinkretik xususiyati, uning ko'p elementli ekanligi, shuningdek, folklorning asosiy belgilari, ya'ni an'anaviyligi va ko'p funksiyaliligi ushbu e'tibor bilan folklorga xos aniqroq ta'rif ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Hozirgi kunga kelib, bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan mezonlarga javob beradigan ta'rif B.N.Putilov tomonidan shakllantirilgan. Uning fikriga ko'ra, "janr – tarixan shakllangan va muayyan asarlarda amalga oshiriladigan, biroq, bir qator universal ma'lumotlarda shakllantirilishi mumkin bo'lgan mazmun, funksional va ijro normalari, stereotiplar tizimi sifatida, bu esa jamoaviy tajriba orqali shakllangan tasavvurlar, munosabatlar, ijtimoiy institutlar, hayot va boshqalar bilan bog'langan" deb ta'riflanadi [1].

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda doston ijrochiligi an'analaridan foydalanish, musiqiy folklor asarlarining janrini aniq belgilash uchun avvalo uning hayotiy maqsadini, jamiyatning rivojlanish jarayoniga va tarixiy qonuniyatlarga bog'liqligini bilish zarur. Shuning uchun ham ba'zi oliy ta'lim tashkilotlarida "Folklor", "Xalq og'zaki ijodi", "Doston ijrochiligi", "O'zbek xalq musiqa ijodi" kabi fanlar mazmunida doston ijrochiligining turli tarixiy jarayonlari, an'analar, aytim yo'llari bilan bog'liq kognitiv bilimlar o'qitilmoqda.

MDH olimlaridan I.I.Zemsovskiyning fikricha "har bir dostonda nafaqat (ba'zan hatto ko'proq) syujetga, biron bir ma'nodagi – to'g'ri yoki qiyosiy - xabar, o'sha inson jamoasi uchun muhim bo'lgan saboq, an'anaviy dars yotadi" deydi [1]. Shubhasiz, o'zbek xalq doston ijrochiligida xalqimizning yuksak qadriyatlari, idealari, ishonchlari va tamoyillar tizimi, shuningdek, milliy xalqning o'z o'rnini va tarixini bilishi aks etadi. Shuning

uchun, Gegelning talqinini qabul qilgan holda, folklor badiiy-falsafiy tizimida doston dunyoqarash funksiyasini bajaradi, xalq ongini aks ettiradi va uning haqiqatga munosabatini belgilaydi.

Doston – janr turkumiga talqin qilinganda, shuni ta'kidlash lozimki, ushbu tur ko'p qirrali va ko'p darajali xususiyatlarga xos bo'lgan janrdir [2]. Xuddi shu o'rinda Aristotel g'oyalarini ham o'rganishga qaror qildik. U san'atning asosiy turlarini "epika", "lirik" va "drama" sifatida ajratgan. Ushbu bo'linish hozirgacha dolzarb hisoblanadi. Biroq, har bir tur ichida yanada aniq belgilarga ko'ra bo'linish mavjud bo'lib, bu esa turlar va turkumlarning turlanishini nazarda tutadi.

Avval aytilganidek, doston ijrochilik asarlarini ushbu turga kiritishga imkon beruvchi asosiy mezonlarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Uning asosiy mezonini – bu uning voqealarni hikoya qilishdagi ob'ektivlikdir. Biroq, ushbu belgilarga ega asarlar jamiyat ongining turli davrlarida, mazmun jihatidan bir-biriga o'xshamaydigan va ba'zan turli maqsadlarni qondiruvchi asarlardir. V.F.Gegelning fikricha, doston ijrochiligining mazmunini "bir tomondan, inson ruhining barcha chuqurliklaridagi diniy ong, ikkinchi tomondan, aniq tashqi mavjudlik, fuqarolik va shaxsiy hayot, hatto tashqi mavjudlikning zarurliklari va ularni qondirish usullari" belgilaydi degan fikrni ilgari suradi [5]. Aytish joizki, o'zbek doston ijrochiligi ham Gegelning doston ijrochiligi haqidagi g'oyalariga hamohang keladi. Bizning dostonlarmiz amaldagi voqelikning deyarli barcha asosiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun, unda kuyohang bilan bir qatorda hikoya qilish jarayoni, qahramonlik, tarixiy, ertak va hatto satirik ham bo'ladi. Doston ijrochiligi asarlar musiqiy va she'riy ifodalanish, shuningdek, ijro usullari jihatidan ham farqlanadi. Shuning uchun, doston ko'p komponentli va ko'p janrli birlashma bo'lib, ko'plab doston ijrochiligi janrlar ichki taqsimlanishga ega.

Shular bilan bir qatorda, "musiqiy epik" iborasini talqin qilish kerakligi yuzasidan aniqlab olish va ushbu ta'rifda ichki qarama-qarshilik holatlarini aniqlik kiritish lozim bo'lib qoldi. Folklor janri nuqtai nazaridan, doston ijrochiligida ikkita aytim turi mavjud. Bulardan biri bu – terma ijrochiligi bo'lsa, ikkinchisi doston aytishdir. O'zbek dostonchiligida odatda doston aytuvchi ijrochilarni baxshilar deb yuritiladi. Baxshilar doston aytishdan oldin o'zlarini tanishtirishlari, ijro uslubini namoyon etishi, tinglovchilarni o'ziga qaratib olishlari uchun nasihatomuz termalarni kuylaganlar. Baxshilarning ham o'z ijro uslublariga qarab bir qator guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga "kuylashdan oldin dostonning ma'lum qismini diklomatsiya sifatida ta'sirchan ovozda, ma'lum bir ritmda do'mbira cholg'usi vositasida aytib berish, tegishli o'rinlarni kuylash", ikkinchi guruh "doston voqealarini tushuntirish uchun so'zli-musiqiy diklomatsiyadan foydalanish" kiradi, ya'ni tasviriy aks ettirish va voqealarni tiplash vositasi sifatida aytim nutqi [to'liq yoki og'zaki hikoyaviy proza bilan almashib] bo'ladi, bunda ushbu asarlarni ijro etishda musiqa elementi va dramalashgan elementlar muhim yoki uncha muhim rol o'ynaydi [4].

"Hikoyaband ijro" baxshilarning eng oddiy doston ijrochiligi janri sifatida keng tarqalganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Uning tarkibida [maqollar, iboralar, jumboqli hikoyalar, aytimlar] kiradi va "asosan hikoya qiluvchi janrlar [ertak sifat, hikoya, masal sifat] kiradi [1].

Garchi baxshilar tomonidan “hikoyaband” ba’zi xududlar (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyati, Jizzax, Qoraqalpog’iston Respublikasi)da ichki bo’g’iq ovozdada, ba’zi xudud (Xorazm)da ochiq ovozdada ijro etilgan. Odatda baxshilar ijodida aytilgan dostonlar nafaqat ovozdada, cholg’uda aytish, balki, ba’zi o’rinlarda “hikoya qilingan voqealarning tavsiflash [baholash]ni ifodalovchi intonatsion va mimik vositalar”dan ham unumli foydalanilgan [2]. Bunday elementlardan foydalanmagan baxshilarni musiqiy-nazariy elementlardan yiroqda deb hisoblanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, bu kabi da’vo juda bahsli. Dostonda musiqa elementi bilan uning matni-she’riyati bilan bir-birini to’ldiruvchi, qo’llab-quvvatlovchi, bir-biridan ustun qilishga da’vo qilmaydigan janr sifatida o’zida mahalliy an’analarni qadrlashi bilan boshqa janrlardan mutloqo ajralib turadi. Shuningdek, musiqa elementi so’nggi paytlarda zaifroq ko’rinishda namoyon bo’lgan janrlar ham bor. Ammo, “doston” janrlar musiqiy janrlar orasida o’zining musiqa tilining mahalliy xususiyatlar bilan qorishib ketganligi, etnik tartiblashganligi bilan ajralib turadi.

Baxshilar kuylash jarayonida bir qator og’zaki prozada, ma’lum bir metro-ritmik ohanglarni o’zlarining do’mbira cholg’ularida ijro etadilar [1]. Baxshilar ijrosidagi asarlar arxaiik madaniyatlarni o’zida namoyon etishi bilan ajralib turadi. bo’lajak musiqa o’qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda doston ijrochiligi maxsus intonatsion-ritmik xarakterga ega bo’lib, musiqa intonatsiyasi elementlari bilan boyitilgan [2]. Kuylangan terma yoki doston ijrochiligida o’ziga xos ichki koloritli hamda shevaga xos ohanglar mavjud.

Shuni ta’kidlash kerakki, o’zbek xalqini qadimda 92 ta urug’i bo’lgan. Shulardan eng kattalaridan biri bu – shubhasiz qo’ng’irot urug’idir. Qo’ng’irot eli orasida juda

qadimdan shakllangan doston ijrochiligi o’ziga xos metro-ritmik xarakterni, o’ziga xos ichki ovoz ijrochiligini o’zida shakllantirilganligi bilan o’zbek musiqa merosi ijrochiligida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijrochilik nafaqat arxaiik madaniyatlar mavjud, balki hozirgi kunda ham qishloq aholisi orasida qo’ng’irot elining asl mentalitetini aks ettiruvchi, so’zlashuv, ovoz qonun qoidalarini o’zida yashab qoldirganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. E’tiborli jihati, qo’ng’irot baxshilari ijrochiligida asoslangan terma va dostonlarning dastlabki audio yozuvlari XIX asrda amalga oshirilgan [3]. So’nggi o’n yilliklarda, mahalliy olimlar (Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov) kabi folklorshunos olimlar tomonidan O’zbekistonning deyarli barcha xududlarida folklor ekspeditsiyalari uyushtirilib, turli hududlarda yashovchi baxshilar ijodiyotika juda katta e’tibor qaratildi, natijada xalqimizning ma’naviy boyligidan biri hisoblangan doston ijrochiligi yuzasidan juda katta ma’naviy boylik to’plandi. Atoqli musiqashunos olim F.Karomatli tomonidan baxshilar ijrosidagi dastlabki o’zbek do’mbiri kuylari nota yozuviga tushirilib, katta kitob qilib nashr etirildi. Ayniqsa, 1960-1990-yillarga qadar yig’ilgan va turli invariant-variantli dostonlar to’plami nashr etildi [3]. Ushbu xayirli ishlarga o’sha davrlarda folklorshunos, musiqashunos talabalar ham keng jalb etilib, ularni ushbu soha bilan tanishish va ham folklor va ham musiqiy folklor ekspeditsiyalarga ishtirok etish mexanizmlari tushuntirilishiga muvaffaq bo’lindi.

Xulosa. Yuqoridagilarni umumlashtirsak, doston ijrochiligiga quyidagi ta’rifni berish mumkin: Doston [yunon tilidan tarjima qilinganda - hikoya, qissa, tarix] - san’atning asosiy turlaridan biri. Xalq janrlari, ob’ektiv hikoya xususiyatiga ega, folklor badiiy-falsafiy, kasbiy-pedagogik tizimida xalqning dunyoqarash funksiyalarini bajaradi.

Adabiyotlar

1. Ibrohimov O.A. «O’zbek xalq musiqa ijodi» (metodik tavsiyalar I qism). –Toshkent: 1994. 62-b.
2. Karomatov F.M. O’zbek xalq musiqasi merosi. // XX asr. Terma, yalla, karsak, kirish maqolasi. –Toshkent: G’G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. 2-23-b.
3. Panjiyev Q.B. O’zbek xalq qo’shiqchilik ijodiyoti. O’quv qo’llanma. –Toshkent: 2022. 274-b.
4. Panjiyev Q.B. Uzbek Seasonal Ceremony. European journal of innovation in nonformal education (EJINE). Table of Content - Volume 2 No 4 (Apr 2022).
5. Panjiyev Q.B. Bo’lajak musiqa o’qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: muammo va yechimlar. Musiqa san’ati sohasida fanlarning o’qitilishining ilmiy-metodik asoslari. Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. Qarshi shahri 2022-yil 11 iyun. 5-11.
6. Annakulova D.B. Samarqand dostonchilik maktabining tarixiy shakllanishi va baxshi ijrochiligi an’alarining tutgan o’rni. musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitdamilliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar (ASR). –Toshkent: «O’zbekistan. 2024. Academic Scientific Research GroupS.

REZYUME. Maqolada doston ijrochiligi va uning mazmuni, tushunchasi, doston ijrochiligining kashfiyotchilari, ularning kasbiy-ijrochilik an’analari hamda undan foydalanishning nazariy asoslari tahlili keltirib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлен анализ исполнения эпоса, его содержания, концепции, изобретателей исполнения эпоса, их профессиональных исполнительских традиций, а также теоретических основ его использования.

SUMMARY. This article presents an analysis of the performance of the epic and its content, concept, the inventors of the performance of the epic, their professional performing traditions, and the theoretical foundations of its use.